

**O‘ZBEKISTON VA XITOIY O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK
MUNOSABATLARIDA TIL VA MADANIYAT
ORQALI YANGI ISTIQBOLGA CHIQISH MUAMMOSI VA
YECHIMLARI**

**РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ ДОСТИЖЕНИЯ НОВОЙ ПЕРСПЕКТИВЫ
ЧЕРЕЗ ЯЗЫК И КУЛЬТУРУ В ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ
МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ**

**SOLUTIONS TO ACHIEVE A NEW PERSPECTIVE THROUGH
LANGUAGE AND CULTURE IN DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN
UZBEKISTAN AND CHINA**



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-23-129-135>

Tashanov Amir Abduraxmonovich

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti talabasi
tashanovamir6545@gmail.com*

Ilmiy maslahatchi: PhD, Z.Shamsiddinova

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti
Sharq tillari kafedrası*

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi ko‘p qirrali diplomatik munosabatlar til va madaniy diplomatiya nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasidagi mintaqaviy strategiyasi, O‘zbekistonning transport-logistika tizimiga integratsiyasi va 2025-yil 31-avgustdagi davlat tashrifi natijasida erishilgan kelishuvlarning siyosiy-iqtisodiy va lingvistik ahamiyati o‘rganiladi. Til siyosati va xitoy tilining O‘zbekistonda kengayishi hamda iqtisodiy hamkorlikning til vositasida mustahkamlanishi alohida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston-Xitoy munosabatlari, til diplomatiyasi, xitoy tili siyosati, madaniy diplomatiya, “Bir makon, bir yo‘l”, Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston temir yo‘li, lingvistik integratsiya, ta’lim hamkorligi, strategik sheriklik.*

Аннотация

В данной статье анализируются дипломатические отношения между Узбекистаном и КНР сквозь призму языковой и культурной дипломатии. Рассматриваются региональная стратегия Китая в рамках инициативы «Один пояс, один путь», интеграция транспортно-логистической системы Узбекистана, языковая политика и роль китайского языка в укреплении двусторонних связей, а также значимость соглашений, достигнутых в ходе государственного визита 31 августа 2025 года.

Ключевые слова: узбекско-китайские отношения, языковая дипломатия, китайская языковая политика, культурная дипломатия, «Один пояс, один путь», железная дорога Китай-Кыргызстан-Узбекистан, языковая интеграция, образовательное сотрудничество, стратегическое партнерство.

Abstract

This article analyzes the diplomatic relations between Uzbekistan and the PRC through the lens of language and cultural diplomacy. It examines China's regional BRI strategy, Uzbekistan's transport-logistics integration, Chinese language policy in Uzbekistan, and the political-economic and linguistic significance of agreements reached during the state visit of August 31, 2025.

Key words: *Uzbek-Chinese relations, language diplomacy, Chinese language policy, cultural diplomacy, One Belt, One Road, China-Kyrgyzstan-Uzbekistan railway, language integration, educational cooperation, strategic partnership.*

KIRISH

Yigirma birinchi asr “Osiyo asri” deb e’tirof etilayotgan bir davrda jahon siyosiy maydonida kuchlar muvozanati sezilarli darajada o’zgarmoqda. Bu o’zgarishlarning markazida turgan Xitoy Xalq Respublikasi va geosiyosiy jihatdan muhim mavqega ega O’zbekiston o’rtasidagi munosabatlar nafaqat ikki davlat, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tadqiqotlari shuni ko’rsatmoqdaki, davlatlararo munosabatlarning mustahkamligi ko’p jihatdan til va madaniy diplomatiya omillariga bog’liq. J. Nye tomonidan ishlab chiqilgan “yumshoq kuch” nazariyasiga ko’ra, davlatning xalqaro ta’siri uning harbiy va iqtisodiy salohiyati bilan bir qatorda madaniy va lingvistik ta’sir doirasi orqali ham o’lchanadi. Xitoyning “Konfutsiy institutlari” tarmog’i va O’zbekistondagi xitoy tili ta’limi aynan shu strategiyaning amaliy ifodasidir.

O’zbekiston o’z tashqi siyosatida “ochiq eshiklar” va o’zaro manfaatli hamkorlik tamoyilini ilgari surar ekan, Xitoy bilan aloqalarni “har tomonlama strategik sheriklik” darajasiga olib chiqishni ustuvor vazifa deb biladi. Bu sheriklikning amaliy qirrasini iqtisodiy bitimlar va infratuzilma loyihalari bilan birga til ta’limi, akademik almashinuv va madaniy muloqotga ham asoslanmoqda. Tilni bilish iqtisodiy hamkorlikning muzokaradan amalga oshirishgacha bo’lgan barcha bosqichlarida hal qiluvchi rol o’ynaydi: xitoy tilidagi shartnomalarni o’qiy oladigan yurist, xitoy sheriklar bilan to’g’ridan-to’g’ri muloqot qila oladigan muhandis yoki texnolog O’zbekiston uchun bugungi kunda strategik resursga aylangan.

O’zbekiston va Xitoy o’rtasidagi aloqalar ming yillik tarixga ega. Buyuk Ipak yo’li davridayoq Samarqand, Buxoro va Farg’ona vodiysi Xitoyning ipak va choy savdosi uchun asosiy darvoza vazifasini o’tagan; Tang sulolasi yilnomalaridagi yozuvlar bu shaharlarni “dunyo savdogarlari markazi” deb ta’riflagan. Ushbu tarixiy aloqa nafaqat savdo yo’li, balki so’g’d, xitoy va arab tillarida so’zlashuvchi

savdogarlar o‘rtasidagi ko‘p tilli muloqot maydoni sifatida ham tarixda qayd etilgan. Bu ko‘p tilli meros bugungi ikki tomonlama munosabatlarning madaniy-psixologik poydevorini tashkil etadi.

Zamonaviy diplomatik munosabatlar 1992-yil 2-yanvarda o‘rnatildi. O‘tgan 30 yil ichida ikki davlat o‘rtasida 200 dan ortiq davlatlararo bitimlar imzolangan. 2012-yilda munosabatlar “strategik sheriklik” darajasiga ko‘tarildi; 2022-yilda Si Szinpinning Samarqandga tashrifi chog‘ida esa “Yangi davrda har tomonlama strategik sheriklik” maqomiga erishdi. Ikki tomonlama savdo hajmi 2016-yildagi 5,8 milliard dollardan 2023-yilda 12,8 milliard dollarga - 2,2 barobar - o‘sd. Bu raqamlar ortida, ko‘pincha e‘tibordan chetda qoladigan, ammo amaliyotda juda muhim bo‘lgan til va madaniy ko‘prik omili yotadi.

Tilshunoslik va xalqaro munosabatlar kesishmasida “til diplomatiyasi” tushunchasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu tushuncha til ta‘limini, madaniy almashinuvni va lingvistik siyosatni davlatning tashqi siyosiy vositasi sifatida ko‘rib chiqishni anglatadi. Xitoy bu borada dunyoning eng faol davlatlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda: 2004-yildan beri dunyoning 162 ta mamlakatida 550dan ortiq Konfutsiy instituti tashkil etilgan bo‘lib, ular xitoy tilini o‘qitish va madaniyatni targ‘ib qilish vazifalari bilan bir qatorda iqtisodiy hamkorlikni lingvistik jihatdan ta‘minlash funksiyasini ham bajaradi.

O‘zbekistonda xitoy tili ta‘limining rivojlanish dinamikasi bu siyosatning samarasini aniq ko‘rsatmoqda. 2016-yilda O‘zbekistonda taxminan 10,000 kishi xitoy tilini o‘rganayotgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 50,000 dan oshdi - besh yil ichida besh barobar o‘shish. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti va bir qator xususiy ta‘lim muassasalarida xitoy tili bo‘limlari ochilgan. 2025-yil 31-avgustdagi davlat tashrifida Toshkentda Xitoy-O‘zbekiston xalqaro texnologiya universitetini tashkil etish to‘g‘risida memorandum imzolanishi bu jarayonning yangi institutsional bosqichini boshlab berdi. Lingvistik integratsiya iqtisodiy ahamiyatga ham ega. “Bir makon, bir yo‘l” loyihalari doirasida O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan 1,700 dan ortiq Xitoy kompaniyasi xitoy tilini biladigan mahalliy mutaxassislariga ehtiyoj sezmoqda. BYD kompaniyasining Jizzax erkin iqtisodiy zonasidagi zavodi, Huawei‘ning 5G loyihalari va qo‘shma sanoat parklari - bularning barchasida ikki tilli mutaxassislar zarurligi amaliyotda tobora sezilyapti. Demak, xitoy tilini o‘rganish O‘zbekiston yoshlari uchun shunchaki madaniy boyitish vositasi emas, balki mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta‘minlovchi bevosita iqtisodiy omilga aylandi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonning xitoy tili ta‘limira qo‘ygan e‘tibori bir tomondan iqtisodiy manfaat, ikkinchi tomondan lingvistik suverenitetni saqlash muammosini birgalikda hal qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Tilshunoslar va siyosatshunoslar bu masalada oq-qora yondashuvdan qochib, pragmatik muvozanat izlashni tavsiya etmoqda: xitoy tilini o‘rganish - diplomatik va iqtisodiy vosita, o‘zbek va davlat tillari esa milliy identitlik asosi bo‘lib qolishi lozim (Smagulova, 2019).

“Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi va O‘zbekistonning transport-logistika imkoniyatlari

2013-yilda e‘lon qilingan “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi 1 trillion dollardan ortiq investitsiya jalb qilib, 149 ta davlatni qamrab olgan dunyo tarixidagi eng yirik infratuzilma loyihasiga aylandi. Mazkur tashabbus orqali quruqlikdagi va dengiz yo‘nalishlari birlashtiriladi. O‘zbekiston bu xaritada uchta strategik yo‘nalish - sharqdan Xitoy, shimoldan Rossiya va janubdan Janubiy Osiyo - ning kesishish nuqtasida joylashganligi bois, Markaziy Osiyoning yuragi sifatida e‘tirof etilmoqda. O‘zbekiston dengizga chiqa olmaydigan davlatlar bilan o‘ralgan davlat sifatida - ya‘ni ikki marta quruqlik bilan qurshalgan noyob geografik holatda bo‘lishiga qaramay - 4200 km temir yo‘l tarmog‘i, 13 ta xalqaro aeroport va Termiz hamda Navoiydagi logistika markazlari bilan mintaqaning asosiy tranzit yo‘lagiga aylanishga kuchli salohiyatga ega. Til diplomatiyasi nuqtai nazaridan esa bu tranzit imkoniyat shuni anglatadiki, O‘zbekiston nafaqat tovarlar, balki g‘oyalar, texnologiyalar va til ta’sirlarining ham o‘tish nuqtasiga aylanmoqda. Sharqiy va G‘arbiy sivilizatsiyalar o‘rtasida joylashgan bu geografik holat O‘zbekistonning ko‘p tilli diplomatik salohiyatini ham oshiradi.

Mintaqaning transport landshaftini tubdan o‘zgartiradigan eng muhim loyiha - bu Qashg‘arni O‘sh orqali O‘zbekistonning Qo‘qon shahriga bog‘laydigan 523 km uzunlikdagi Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston (XQO) temir yo‘lidir. Qirq yillik muhokamadan so‘ng 2023-yilda uch tomonlama hukumat bitimi imzolandi. Iqtisodiy samara aniq: dengiz yo‘li bo‘yicha 30–45 kun talab qiladigan Xitoy-Yevropa yuk tranziti mazkur yo‘l orqali 15–18 kunga qisqaradi, O‘zbekistonning tranzit daromadlari yiliga 600–800 million dollarga oshishi tahmin qilinmoqda. Loyiha qiymati 5–6 milliard dollar deb taxmin qilinmoqda. Ushbu temir yo‘l loyihasi bilan birga til masalasi ham amaliy jihatdan ko‘tarilmoqda: uch mamlakatning texnik mutaxassislari, transport menejerlari va yuristlari o‘rtasidagi muloqotda qaysi til vositachi til (lingua franca) bo‘lishi, shartnomalar qaysi tilda tuzilishi, da‘volar qaysi arbitraj organi tomonidan qaysi tilda ko‘rilishi - bularning barchasi XQO temir yo‘li loyihasining lingvistik-huquqiy o‘lchamini tashkil etmoqda.

O‘zbekiston shuningdek Trans-Kaspiy Xalqaro Transport yo‘liga ham integratsiyalashmoqda - bu Qozog‘iston-Kaspiy-Ozarbayjon-Turkiya-Yevropa yo‘nalishini bog‘laydi. Ko‘p tomonlama logistika yondashuvi mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega: bitta yo‘nalishga haddan ziyod bog‘liq bo‘lish geosiyosiy o‘zgarishlar paytida eksport imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Bu ko‘p yo‘nalishlilik esa til jihatidan ham o‘z aksini topadi: rus, ingliz, turk va xitoy tillarini biladigan diplomat yoki savdogar O‘zbekiston uchun bugungi kunda eng qimmatli kadrqa aylangan.

O‘zbekiston Prezidentining 2025-yil 31-avgustdagi Xitoyga rasmiy davlat tashrifi bir necha jihatdan tarixiy ahamiyat kasb etdi. Avvalo, Mustaqillik bayramidan bir kun avval - 1-sentabr arafasida - Xitoyga tashrif amalga oshirilishi aniq siyosiy signal: bu 34 yillik mustaqillik yo‘lida O‘zbekiston uchun kimlar bilan

hamkorlik eng ustuvor yo‘nalish ekanligini ko‘rsatuvchi ramziy qarordir. Tashrif doirasida to‘rt asosiy yo‘nalishda muhim bitimlar imzolandi. Infratuzilma va transport sohasida XQO temir yo‘lini to‘liq moliyalashtirish mexanizmini 2025-yil oxirigacha rasmiylashtirish kelishildi; Toshkent-Andijon tezkor yo‘lini Qo‘qon orqali temir yo‘l tarmog‘iga ulash bo‘yicha texnik-iqtisodiy asos ishlab chiqish bitimlashtirildi. Sanoat va investitsiya sohasida Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida uchta yangi Xitoy-O‘zbekiston qo‘shma sanoat parki tashkil etildi, 15 000 dan ortiq yangi ish o‘rni hamda 2 milliard dollarga yaqin to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya rejalashtirilgan.

Ta‘lim va til hamkorligi sohasidagi bitimlar esa ushbu tashrif natijalari orasida alohida o‘rin tutadi. “Tsinghua” va “Pekin” universitetlari bilan talabalar almashinuvi hamda qo‘shma diplom dasturlari ikki barobarga oshirildi. O‘zbekistonlik talabalarga Xitoy hukumati stipendiyalari yiliga 500 tadan 1 200 taga ko‘paytirilib, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda bu ko‘rsatkich bo‘yicha birinchi o‘ringa chiqdi. Toshkentda Xitoy-O‘zbekiston xalqaro texnologiya universitetini tashkil etish to‘g‘risidagi memorandum imzolandi - bu muassasa xitoy va o‘zbek tillarida ta‘lim beruvchi ikki tilli oliy o‘quv yurti sifatida rejalashtirilgan. Bu bitimlarning lingvistik ahamiyatini baholash uchun quyidagi raqamlarga e‘tibor qaratish kifoya: 2025-yilga kelib O‘zbekistonda xitoy tilini o‘rganayotganlar soni 50 000 dan oshdi - 2016-yilgi ko‘rsatkichdan besh barobar ko‘p. 31-avgustdagi tashrif stipendiyalar sonini 140 foizga oshirishi bilan bu ko‘rsatkichni yanada oshirish uchun institutsional asos yaratdi. Ayniqsa, Xitoy yetakchi kompaniyalarida - Huawei, BYD, CITIC kabi korporatsiyalarda - malaka oshirish va amaliyot o‘tash imkoniyati O‘zbekiston yoshlari uchun nafaqat texnik, balki lingvistik salohiyatni ham oshirish imkoniyatini yaratdi.

Ijtimoiy rivojlanish sohasida Xitoyning qashshoqlikni tugatish tajribasini - ya‘ni 1978–2021-yillarda qariyb 800 million kishini qashshoqlikdan chiqargan modelni - O‘zbekistonning 20 ta chekka tumanida moslashtirib qo‘llash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” qabul qilindi. Bu “Yo‘l xaritasi”ni amalga oshirishda Xitoy mutaxassislari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlash zaruriyati mahalliy kadrlarga xitoy tilida muloqot qilish talabini ham yuklaydi - bu esa ta‘lim hamkorligini iqtisodiy rivojlanish vositasiga bevosita bog‘laydi.

Har qanday til siyosati muammosi kabi O‘zbekiston-Xitoy lingvistik integratsiyasi ham ikki tomonlama xatarlarni o‘z ichiga oladi. Bir tomondan, xitoy tilining O‘zbekistonda kengayishi iqtisodiy va diplomatik imkoniyatlarni oshiradi; ikkinchi tomondan, milliy tillarning - o‘zbek tilining - hayotiy muhim sohalarda siqib chiqarilishi xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Bu muammo tilshunoslar tomonidan “lingvistik imperializm” va “dominantlik” tushunchalari orqali o‘rganiladi.

O‘zbekiston bu borada muvozanatli yondashuv sari qadam qo‘ymoqda. Davlat ta‘lim standartlarida chet tillarini o‘qitishning asosi sifatida o‘zbek tili tizimini saqlash talabi mustahkamlangan. Shu bilan birga, xitoy tilini kasb-hunar ta‘limi, muhandislik va texnologiya ta‘limi bilan uyg‘unlashtirish - ya‘ni til o‘rganishni sof

akademik mashg'ulot emas, balki amaliy texnik bilim bilan bog'liq jarayonga aylantirish - xatarni kamaytirish va foydasini oshirishning samarali yo'li sifatida ko'rilmogda. Akademik almashinuv dasturlari va Toshkentdagi qo'shma universitetni loyihalashtirishda ikki tilli ta'lim modeli joriy etish masalasi muhokama markazida turibdi. Jahon amaliyotida muvaffaqiyatli ikki tilli universitetlar - masalan, Germaniya-Iordaniya universiteti yoki Malayziya-Yaponiya xalqaro instituti - tajribasini inobatga olish O'zbekistonga lingvistik mustaqillikni saqlab qolgan holda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga imkon beradi.

Xulosa

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar ming yillik tarixiy ildizlar va zamonaviy strategik manfaatlar kesishgan o'rinda shakllanib, bugungi kunda “Yangi davrda har tomonlama strategik sheriklik” shiori ostida yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik endi faqat iqtisodiy yoki harbiy-siyosiy parametrlar bilan emas, balki til va madaniy diplomatiya o'lchami bilan ham baholanishi zarur. Bo'lajak temir yo'l, raqamli ipak yo'li, sanoat parklari va ta'limdagi kengayish bularning barchasi birgalikda O'zbekistonning mintaqaning yetakchi logistika, ishlab chiqarish va ta'lim markazi sifatida shakllanish strategiyasiga xizmat qilmoqda. 31-avgustdagi tashrif ana shu keng strategiyaning eng muhim operatsional hujjatlarini - jumladan, til va ta'lim sohasidagi bitimlarni - rasmiylashtirgan voqea sifatida tarix zarvaraqlarida qoladi.

Strategik sheriklikning barqarorligi esa ikki tomonning manfaatiga xizmat qilishiga bog'liq. O'zbekiston Xitoy bilan munosabatlarni chuqurlashtirish bilan birga milliy iqtisodiy va lingvistik suverenitetini hamda ko'p tomonlama tashqi siyosat yo'nalishini saqlab qolishi davlatning o'zgarmas strategik tamoyili bo'lib qoladi. Xitoy tilini o'rganayotgan 50 000 dan ortiq O'zbekiston yoshi bu tarixiy jarayonning nafaqat iqtisodiy, balki lingvistik ko'prik qurilishida ham faol ishtirokchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda milliy transport va logistika strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Phillipson, R. - “Lingvistika imperializmi”
3. Nurullayev J. “Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li: O'zbekistonning tranzit salohiyatiga ta'siri” strategy.uz/library
4. Jahon Banki, Markaziy Osiyoni bozorlar bilan bog'lash: Savdo koridorlari va logistika worldbank.org/en/region/eca/publication/connecting-central-asia-to-markets
5. Jahon Banki, O'zbekiston ma'lumotlar bazasi <https://data.worldbank.org>
6. Shamsiddinova Z. O 'ZBEK TILIDAGI-GAN AFFIKSINING GRAMMATIK MA'NOLARI VA ULARNING XITOIY TILIDA IFODALANISHI

//Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2025. – Т. 5. – №. 27. – С. 34-37.

7. Шамсиддинова А. С. и др. ОЦЕНКА УРОВНЕЙ АКТИВНОСТИ МАТРИКСНЫХ МЕТАЛЛОПРОТЕИНАЗ И ДРУГИХ МАРКЕРОВ ВОСПАЛЕНИЯ У БОЛЬНЫХ ОСТРЫМ КОРОНАРНЫМ СИНДРОМОМ //Форум молодых ученых. – 2024. – №. 1 (89). – С. 159-162.

8. Shamsiddinova, Z. (2023). UNCERTAIN PAST TENSE IN THE TRANSLATION OF UZBEK ARTISTIC WORKS INTO CHINESE. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(23), 228-232.

9. Shamsiddinova Z. F. Feature of the use of temperaments in the socio-political texts of the modern chinese //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 10. – С. 447-453.